

QIZLARNI MUSTAQIL HAYOTGA TAYYORLASH- DOLZARB VAZIFA

Salayeva M.S., p.f.n., dots. Urganch davlat universiteti
Qurboniyozova Nodira, Urganch davlat universiteti magistranti

Mustaqillik yillari O'zbekiston tarixida misli ko'rilmagan yangilanishlar va o'zgarishlar davri bo'lib, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida erishilayotgan ulkan natijalar muhtaram birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida tanlangan mustaqil taraqqiyot yo'lining porloq ekanligi, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, izchil iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni

ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish kabi yo'nalishlar suveren davlatimizning adolatli va insonparvar ichki siyosatida doimiy ustuvor bo'lib kelayotgani, ular sirasida jamiyatning ma'naviy yuksalishi va shaxs ma'naviy kamolotiga berilayotgan e'tibor alohida o'rin egallashini to'la isbotladi.

Yosh avlodga zamonaviy ta'lim berish bilan birga ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yuksak iqtisodiy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ongi va qalbini mafkuraviy va ma'naviy tahdidlardan ishonchli himoya qilish, ularda g'oyaviy immunitet hamda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalalari davlatimizning doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Yurtimizda yosh avlodning har jihatdan barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun, keng imkoniyatlar yaratilib, ko'pgina xayrli ishlar amalga oshirilayotir. Onalik va bolalikning ijtimoiy muhofazasi, sog'lom oila muhitini, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, bolalarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish, ularni sportga, qo'shimcha ta'limga jalb etish, sog'lomlashtirish va profilaktik

tadbirlar, kasbga yo'naltirish, har tomonlama uyg'un rivojlangan yetuk shaxsni tarbiyalash borasidagi sa'y-harakatlar e'tiborga molikdir.

Mustaqil Respublikamizda qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, erta va qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarning oldini olish, buning asoratlarini ota-onalar va yoshlarga tushuntirish, shar'iy nikohni qonuniy ravishda amalga oshirish, oilalar mustahkamligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Respublikamizda xotin-qizlarning oila va jamiyatdagi o'rni va mavqeini oshirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda, qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilalar buzilishining oldini olish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mahallalarda, ta'lim muassasalarida ayni maqsadga qaratilgan davra subbatlari, muloqotlar, tushuntirish ishlari olib borilayotir. «Orasta qizlar», «Nikoh tartibi», «Islomda nikoh va uning shartlari», «Oila – ma'naviyat qo'rg'oni», «Ola-

ona bo'lish mas'uliyati» kabi mavzulardagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar shular jumlasidandir.

Voyaga yetmagan yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida xotin-qizlar qo'mitalari, «Mahalla» xayriya jamoat fondi va «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati hamkorligida o'tkazilayotgan bunday tadbirlar, sport musobaqalari o'z samarasini bermoqda. Ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida joylarda erta nikohlar soni o'tgan yillarga nisbatan keskin kamaygan. Bu xalq ta'limi, sog'liqni saqlash muassasalari, o'zini o'zi boshqarish idoralari tomonidan olib borilayotgan keng ko'lamlı tushuntirish ishlarining samarasidir. Ota-onalar farzandlari kasb-hunarli bo'lishi ularning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega ekanini tobora chuqur anglab yetmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchi qizlarini litsey va kollejlarga to'liq qamrab olish bo'yicha shahar va tuman xotin-qizlar qo'mitalari qoshida maxsus ishchi guruhlar faoliyat ko'rsatayotir. Ularning tarkibiga xotin-qizlar qo'mitasi, mahallalardagi diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar, mahallaning obro'li onaxonlari, pedagoglar, huquqshunoslar kiritilgan.

Xotin-qizlar boshlang'ich tashkilotlari mas'uliyatini, yoshlar o'rtasida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar samaradorligini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sog'lom avlodni dunyoga keltirish uchun ona sog'lom bo'lishi shart. Shu bois har yili hududlardagi mavjud ta'lim muassasalarida o'smir qizlar o'rtasida tibbiy ko'rik o'tkaziladi. Aniqlangan kasalliklar bo'yicha davolash chora-tadbirlari belgilanadi. Erta nikohlarning oldini olish ko'p jihatdan mahalla faollariga bog'liq. Mahalladagi obro'-e'tiborga ega vakillar bilan har bir xonadonga kirib, oilalar ahvoli bilan tanishib chiqish, har oy oxirida olib borilayotgan ishlar, kamchilik va muammolar batafsil tahlil qilinib, zarur chora-tadbirlar belgilanadi.

Respublikamizning barcha viloyat, tuman va shaharlarida nikohlanuvchi yoshlarning tibbiy ko'rigini tashkil qilish, qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularning erta turmushga chiqishiga, noqonuniy ravishda shar'iy nikohdan o'tishiga yo'l qo'ymaslik, yosh oilalar turmushi buzilishining oldini olish, notinch oilalardagi voyaga yetmaganlar bilan tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, nikohi bekor bo'lgan va boquvchisini yo'qotgan oilalarning farzandlarini ma'naviy-ma'rifiy jihatdan sog'lom va barkamol qilib tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Afsuski, ba'zi joylarda ota-onalarning shoshma-shosharliklari oqibatida erta nikohlar uchrab turibdi. Jumladan, Quyichirchiq, Chinoz, Qibray tumanlarida

voyaga yetmagan qizlarga noqonuniy ravishda shar'iy nikoh o'qigan imomlar aniqlanib, ularga nisbatan tegishli choralar ko'rildi.

Xulosa shuki, amalga oshirilayotgan bunday chora-tadbirlar xotin-qizlarning oila va jamiyadagi mavqeini mustahkamlashga, ijtimoiy faolligini oshirishga, qizlarimizni mustaqil hayotga tayyorlash, ularning oila haqidagi bilim va tushunchalarini kengaytirishga, pirovard natijada oila mustahkamligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. Yoshlarimiz xalqimizning ishonchi va tayanchi. –T. Ma'naviyat. 2006 y
2. O. Musurmonova. F. Abdurahimova. Mahallada qizlarning sog'lom turmush tarsi. –T. O'zbekiston. 2008 y
3. O. Musurmonova. Oila ma'naviyati - milliy g'urur–T. O'qituvchi. 2000 y

PEDAGOGIKA FANIDA DAVRLASHTIRISH MUAMMOSINI HAL QILISH

Salayeva Muhabbat, p.f.n., dotsent, Urganch davlat universiteti
Raximova Ma'rifat, talaba, Urganch davlat universiteti

Mustaqillik yillarida xalqimizning ma'naviy-ilmiiy merosini o'rganish va unga munosib baho berish muhim vazifalardan biriga aylandi. Zero, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida quyidagilarni alohida ta'kidlagan edi: "Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi tosh yozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi". [1.]

Darhaqiqat, ilmiy merosimiz mazmunini milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitilgan pedagogik g'oyalar tashkil etadi. Chunki, umuminsoniy tafakkur mahsuli bo'lgan bilimlarga insoniyatni yangi taraqqiyot bosqichiga yetaklaydi.

Jamiyat o'z oldiga qo'ygan ulkan maqsadlarga erishish uchun eng avvalo barkamol shaxsni tarbiyalashga oid mukammal g'oyalarga murojaat qiladi. Shuning